



## “MUQADDIMAT UL – ADAB” QIPCHOQ LAHJASIGA OID QAYDLAR AKS ETGAN MUMTOZ MANBA

Ashirov Odilbek Maxsudovich

QQDU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası o‘qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8383138>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> September 2023

Accepted: 26<sup>th</sup> September 2023

Online: 27<sup>th</sup> September 2023

### KEY WORDS

“Muqaddimat ul-adab”, qipchoq lahjasi, o‘zbek tili, mumtoz manbaalar, ot va fe‘l, lug‘at, turkiy tillar, arab manbaalari.

### ABSTRACT

Mazkur maqolada Mahmud az-Zamaxshariyning mashhur asarlaridan biri bo‘lgan “Muqaddimat ul-adab” asari Qipchoq lahjasiga oid qaydlar aks etgan mumtoz manbadir. Shuningdek, “Muqaddimat ul-adab”ning juda muhim filologik, pedagogik, antropologik va didaktik ahamiyatga ega jihatlari tahlil qilingan.

Az-Zamaxshariyning xorazmshoh Alouddavla Abulmuzaffar Otsizga bag‘ishlab yozilgan “**Muqaddimat ul-adab**” asari alohida ahamiyatga egadir. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, xorazmshohlar davrida ilm-fan, madaniyat ancha taraqqiy qilgan edi. Hukmdorlar, ayniqsa, xorazmshoh Otsiz olimlar, shoiru adiblarga hurmat bilan qarar, o‘zi ham iste’dodli, ma’rifatparvar, adabiyotga qiziqqan, bilimdon odam edi. Uning davrida ilm-fan taraqqiyoti yo‘lida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, az-Zamaxshariy «Muqaddimat ul-adab»ni uning nomiga bag‘ishlab yozgan. Asar besh katta qismga bo‘lingan bo‘lib — **otlar, fe‘llar, bog‘lovchilar, ot o‘zgarishlari va fe‘l o‘zgarishlari** haqida bahs yuritadi. [1] Asar 1137-yillari yozib tugallangan. Az-Zamaxshariy o‘z asarida o‘sha davr arab tilining iste’molda bo‘lgan barcha so‘zlari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e’tibor qilgan. Shu boisdan ham az-Zamaxshariyning bu yirik asarini mazkur yo‘nalishdagi dastlabki asarlardan deyishga haqlimiz. “Muqaddimat ul-adab” arabchadan fors, chig‘atoy, mo‘g‘ul va turk tillariga tarjima qilingan. Manbalarda ta’kidlanishicha, asarning chig‘atoy tilidagi tarjimasi az-Zamaxshariyning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan. Zotan xorazmshoh Otsizning tushunishi uchun asarning arabcha matni bilan birgalikda chig‘atoy tilidagi tarjimasi ham yaratilgan, deb bilish o‘rinlidir. “Muqaddimat ul-adab” yaratilgan davridan boshlab bir necha asrlar davomida olimlar, tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga tortib kelayotir. U birinchi marta 1706-yili Xo‘ja Is’hoq Afandi tomonidan usmonli turk tiliga tarjima etilgan. So‘ngra Ovro‘poning bir qancha tillariga (frantsuz, nemis) o‘girilgan. Parij, Leyptsig, Vena, Leydan, qozon shaharlarida, Norvegiya, Misr va Hindistonda bir necha marta chop etilgan. Nemis olimi Vatzastayn “Muqaddimat ul-adab”ning Ovro‘po qo‘lyozma fondlaridagi yettita nusxasini qiyosiy o‘rganib, 1850-yili Leyptsigda asarning ikki jildlik tanqidiy matnini nashr etgan.

Asarning chig‘atoy tilidagi tarjimasi o‘zbek tili tarixini o‘rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. 1921-yilda Sadriddin Ayniy “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida yozgan



maqolasida Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamatul-adab” asari o‘zbek tili uchun butun dunyoning xazinasi bilan barobar deb, uning ijodiga e‘tibor berishga chaqirgan edi. Ushbu asarning arabiy-forsiy, arabiyforsiy-turkiy, arabiy-forsiy-turkiy-mo‘g‘uliy so‘zlik kiritilgan qo‘lyozmalari dunyoning turli mamlakatlari fondida saqlanmoqda. Ushbu asar yuzasidan ham ustozlarimiz Z.Islomov, M.Hakimjonovlar tomonidan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Maqola “Muqaddamatu-l-adab” asarining arabiy-forsiy-turkiy so‘zlik kiritilgan dunyoda mavjud nusxalar ichida o‘zining eng qadimiyligi bilan qimmatli “Yozgat” nusxasidagi imlo xususiyatlari haqidadir. Ushbu qo‘lyozma asar xotimasidagi yozuvga ko‘ra, xijriy 655, milodiy 1257-yilda Xorazmlik kotib Ibrohim bin Mahmud so‘fi Muazza qo‘li bilan kitobat qilingan. Ushbu qo‘lyozma XII–XIII asr turkiy tili, leksikasi, uning semantik, grammatik xususiyatlari hamda o‘rta asr turkiy tiliga mansub bo‘lgan so‘zlik va uning grafik xususiyatlarini ochib berishligi bilan xarakterlanadi. Ushbu nusxadagi turkiy so‘zlikning grafikasi keyingi asrlarda kitobat qilingan boshqa qo‘lyozmalardagi imlo qoidalaridan bir qancha o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi. “Muqaddamatu-l-adab”ning o‘rganilgan barcha qo‘lyozmalarida turkiy so‘zlik to‘lig‘icha arabiy uslubda berilgan. Ularda jumalardagi ketma-ketlik arab tiliga moslashtirilgan. [2]

Mazkur lug‘at kitob o‘sha davrda arab tilining iste‘molda bo‘lgan barcha so‘zlari iboralarini qamrab oladi. Bu so‘zlarning ma‘nolari, etimologiyasi yetarli darajada keng sharhlangan. “Muqaddimat ul-adab” fors tilidan tashqari chig‘atoy (o‘zbek), mo‘g‘ul, turk tillariga ham tarjima qilingan. “Muqaddimat ul-adab” asari klassik lug‘at formatida yozilgan. Aytish mumkinki, Bu asar Otsizning buyrug‘ini bajarishdan tashqari, muallifning o‘z maqsadlarini haqiqat bilan bajarish uchun yozilgan. Mahmud Qoshg‘ariydan farqli ravishda, u arab tilini bilmaydiganlarga arab tilini o‘rgatish va shu bilan birga arablarga arab tilining nozik tomonlarini tushuntirishni maqsad qilgan holda “Muqaddimat ul-adab” nomli til va adabiyot ilmiga doir bir kitob yozdi. Bu asarida u turli turk urug‘larining lahjalari haqida ma‘lumot beradi. O‘g‘uz, Qipchoq, Kang‘li, ularning til xususiyatlari va h.k. “Muqaddimat ul-adab” asarining pedagogik qiymati O‘rxun yozuvlari va “Devoni lug‘otit turk”dan keyin bizga yetib kelgan turk tilining eng qadimgi va yozma merosidir.

“Muqaddimatul-adab” asarini 5 qismga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Ismlar. Sub’yektlariga ko‘ra ma‘nosi va ko‘plik shakllari ko‘rsatilgan.
2. Fe‘llar. Arabcha fe‘l tuslanishi bo‘lgan boblarga ko‘ra, har bir bob fe‘lning tuzilishiga ko‘ra joylashtirilgan va fe‘llar yana arab tilida qo‘llaniladigan alifbo tartibiga ko‘ra joylashtirilgan, shuningdek ularning tuslanmagan shakllari ham berilgan.
3. Harflar: (ot va fe‘ldan tashqarida qolgan grammatik elementlar).
4. Ismni turlari.
5. Fe‘l qo‘shimchalari.[3]

Bu asarning bir necha qo‘lyozmalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. “Muqaddimat ul-adab” asarning bizgacha yetib kelishi tilshunoslikning katta baxti hisoblanadi. Chunki u o‘zbek tili tarixini o‘rganishda qimmatli va ishonchli material bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham bu haqida Sadridin Ayniy: “Muqaddimat ul-adab” asari o‘zbek tili uchun butun dunyoning xazinasi bilan barobardir”, - deb yozgan edi. Bu asar bugunga kelib ko‘pchilik tilshunos olimlarning diqqatini tortdi. Ayniqsa N.N Poppe va A.K. Borokovlar uning mo‘g‘ul va o‘zbek tiliga doir qismini tadqiq



qilishda va butun asarning matnini nashr qilishda katta xizmat qildilar. Asarda ismlar tematik tamoyil asosida guruhlariga bo'linadi: vaqt nomlari, osmon jismlari nomlari, tabiat hodisalari nomlari, metal va minerallar nomlari, aloqa yo'llari nomlari, suv bilan bog'liq nomlar, o'simlik nomlari va boshqalar.

Asarda fe'llar arab grammatikasi an'anasiga muvofiq o'zak tarkibiga ko'ra sinflarga ajratilgan. "Muqaddimat ul-adab" asarning chig'atoy va mo'g'ul tillaridagi tajima matni 1938-yil N.N.Poppe tomonida alohida kitob holida nashr etilgani turkiyshunoslik va mo'g'ulshunoslikda katta voqea bo'ldi. Ko'hna Xorazm zaminida azaldan jahon fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqan.

Buyuk mutafakkir Zamaxshariy arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq asarlar yaratgan, ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan.[4]

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng boy ilmiy merosimizni o'rganish sohasida turli fanlar qatori tilshunoslik, adabiyotshunoslik, lug'atshunoslik hamda sharqshunoslikka oid qo'lyozma manbalarni o'rganish, tadqiq etish uchun keng imkoniyatlar eshigi ochib berildi. Aynan shu yillarda ko'plab buyuk ajdodlarimiz qatori Mahmud Zamaxshariyning asarlari ham o'rganila boshlandi. Mustaqillikka qadar Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosi kam o'rganilgan. 1995-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Mahmud Zamaxshariy tavalludining 920-yilligini nishonlash haqida qarori alohida ahamiyat kasb etdi. Xalqimiz va keng jamoatchilikni bobokalonimizning hayot-faoliyati, ilmiy merosi bilan tanishtirishda A.Rustamov, U.Uvatov, Z.Islomov, M.Hakimjonov, M.Nosirova, N.Sulaymonova kabi olimlarimizning ilmiy-tadqiqot ishlari, monografiya, risola va turkum maqolalari diqqatga sazovor ishlardan hisoblanadi.[5]

Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining tahlili, uning asosan ijtimoiy sohalarda, chunonchi, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, lug'atshunoslik, aruz, notqlik san'ati, she'riyat, mantiq, geografiya, falsafa hamda diniy ilmlarni o'z ichiga olgan asarlarida ko'rinadi. Mahmud Zamaxshariy asarlarining ko'pchiligi adab ilmining turli masalalarini o'rganishga yo'naltirilgan. Bugungi kunda uning qalamiga mansub turli sohalardagi 70 dan ortiq nodir asarlari mavjudligi ma'lum. Mahmud Zamaxshariyning chuqur bilimi, buyuk dahosi va fanning turli sohalarga oid o'lmas asarlari u hayotlik paytidayoq butun musulmon Sharqida unga betakror shuhrat keltirgan.

Xulosa qilib aytganda Zamaxshariyning – turkiy xalqlarning ilmiy, diniy, adabiy xususiyatini o'zida mujassam etgan "Muqaddimat ul- adab" asarini turk tilining turli lahjalarida so'zlar va qisqa jumlar hamda tushuntirish uchun xizmat qilingan asar sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Bu asar arab tili va adabiyotining nozik tomonlarini o'z ichiga oladi va qipchoq lahjasiga oid mabaalar aks etgan muhim asar hisoblanadi.

## References:

1. Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. –Toshkent: "O'qituvchi", 1982.
2. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т. Ўқитувчи. 1994.
3. XV-XIX асрлар ўзбек тили морфологияси. –Т., 1990.
4. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т., 1973.



5. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш., Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 2008.